



# Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

**Universal International Scientific Journal**

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](#)

Year: 2024      Issue: 1      Volume: 7

Published: 20.10.2024      <https://universaljurnal.uz>

**International indexes**

[GOOGLE SCHOLAR](#)

[CROSSREF \(OAK BAZA\)](#)

[ZENODO](#)

[OPEN AIRE](#)

[EUROPUB](#)

[RESEARCHGATE \(OAK BAZA\)](#)

[SJIF](#)



**Abduqahharov Lochinbek Tursunali o'g'li**  
Namangan tumani 10-sonli umumta'lim maktabi  
ijtimoiy fan o'qituvchisi  
**Uzbekistan**

## IJTIMOIY FAOL VA BAG'RIKENG SHAXSNING KAMOL TOPISHIDA OILANING AHAMIYATI

**Abstract:** This article presents a socio-philosophical analysis of the fact that morality has been the main principle in the lifestyle of the peoples of the Central Asian region, and that family education is an important institution in it, and that raising a socially active and tolerant person is an important necessity of the time.

**Key words:** Thought, lifestyle, civil society, Central Asia, family, neighborhood, globalization, value, culture, social activism.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari turmush tarzida axloq bosh tamoyil bo'lib kelganligi va unda oiladagi tarbiya o'ziga muxim institut ekanligi, ijtimoiy faol va bag'rikeng shaxsni tarbiyalash davrning muxim zaruriyatini ekanligini ijtimoiy-falsafiy tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Tafakkur, turmush tarzi, fuqarolik jamiyat, Markaziy Osiyo, oila, mahalla, globallashuv, qadriyat, madaniyat, ijtimoiy faoliyat.

**Аннотация:** В данной статье проводится социально-философский анализ того, что нравственность стала главным принципом в образе жизни народов среднеазиатского региона, а воспитание в семье является

важным институтом, а также что воспитание воспитание социально активного и толерантного человека является важной необходимостью времени.

**Ключевые слова:** Мысль, образ жизни, гражданское общество, Центральная Азия, семья, соседство, глобализация, ценности, культура, социальная активность.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Abdukahharov , L. THE IMPORTANCE OF THE FAMILY IN THE DEVELOPMENT OF A SOCIALLY ACTIVE AND TOLERANT PERSON. Universal International Scientific Journal, 1(7), 39–41.

Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1157>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14011579>

Markaziy Osiyo mintaqasida asrlar mobaynida aholi turmush tarzi va tafakkurida ma’naviyat, din-axloq, ta’lim-tarbiya va madaniyat uyg’un holda amal qilishi asosiy mezonga aylangan. Axloq har qanday sharoitda insoniylikning bosh tamoyili sifatida tan olingan. Qolgan barcha harakatlar va mezonlar, jumladan, iqtisodiy hamkorlik, o’zaro yordam, bozor munosabatlari, savdosoti, mol ayirboshlash ham qadimdan yuksak odob va axloqqa tayangan ma’naviy-mafkuraviy munosabatlarning bir qismi hisoblangan. Ayni vaqtida xalqimiz mentalitetidagi ushbu noyob xususiyatni vorisiylik ana’nalari sifatida asrash muhimki, globallashuv davridagi “ommaviy madaniyat” kabi zararli ta’sirlardan saqlanishda katta ahamiyatga ega bo’ladi. Bir tomonidan, ayrim xalqlar madaniyati boshqalarning rivojiga, ularning jahon tamadduniga yaqinlashuviga yordam bermoqda. Ikkinci tarafdan, ba’zan rivojlangan xalqlar madaniyati taraqqiyotdan ortda qolgan millatlar madaniyatini yutib yubormoqda. Ularga kuchli ta’sir o’tkazib, o’ziga xosligini, milliy xususiyatlarini, qadriyatga aylangan urf-odat va an’analalarini poymol etayotir. Ta’kidlash kerakki, jahon tamadduni yutuqlariga ko’r-ko’rona ergashish milliy o’ziga xoslikni zavolga mahkum etadi.

Axloq va odob borasidagi milliy qadriyatlarning o’zaro birlashib, yaqinlashib borishi taraqqiyot qonunidir. Lekin har bir millatning o’zigagina xos bo’lgan ijtimoiy, ma’naviy, milliy axloqiy qadriyatlari butunlay birlashib, uyg’unlashib ketmaydi. O’z milliy qadriyatlarni chuqur bilgan odamgina boshqa xalqlarning madaniy merosini o’rganishga ehtiyoj sezadi va qadriga yetadi. O’z davri ijtimoiy muhiti talablariga javob tariqasida qaror topgan an’ana va marosimlarning barchasi ham millatning kelgusi taraqqiyoti uchun poydevor bo’la oladigan qadriyatlarga aylanavermaydi. Bir vaqtlar qadim ajdodlarimizning ma’naviyatida mezon bo’lib xizmat qilgan “Ezgu niyat”, “Ezgu so’z” va “Ezgu amal” birligi tamoyili nafaqat o’sha davr ma’naviyati uchun, ayni paytda hozirgi davr ma’naviyatining takomillashuviga ham tamal toshi vazifasini o’tashi mumkinligini hisobga olib bu kabi qadriyatlarmizni asrashimiz va rivojlantirishimiz zarurdir. Ma’naviy-iqtisodiy omillarning ta’sirini kuchaytirish hisobiga yoshlarda ijtimoiy faollikni oshirish, ularda g’oyaviy immunitet rivojini ta’minlashda yetakchi o’rin egallab, ma’naviy-axloqiy qiyofasining faollik darajasini yuksaltiradi. Buning uchun oilaviy qadriyatlар targ’ibini keng yo’lga qo’yish, mahallaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan

yanada samaraliroq foydalanish ko'zda tutiladi. "Ijtimoiy faollikni shakllantirishning an'anaviy institutlariga insonga ketma-ket ta'sir ko'rsatuvchi oila, yaqin atrofdagilar, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, ishlab chiqarish kiradi". Demak, ijtimoiy faollik darajasini shakllantirish omili sifatida oila asosiy o'rinni egallar ekan, oilaning tarbiyaviy ta'sir etuvchilik omilini e'tirof etgan holda e'tibor qaratishni taqozo etadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda: "...hammamizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir". Insonning, xususan yoshlarning ma'naviy axloqiy qiyofasi oilada shakllanib, rivojlanib boradi. Shaxsning ma'naviy kamol topishi uchun qulay shartsharoitlar yaratish ota-onalar va pedagoglarning u yoki bu yosh bosqichida axloqiy normalar o'zlashtirib olinishi qonuniyatlarini qanchalik tushunishiga bog'liq bo'ladi". Va bu axloqiy normalar o'zaro do'stlik va bag'rikenglik xislatlarining rivojida muhim o'rin tutadi. Chin ma'nodagi ijtimoiy birdamlik, avvalambor, korporativ yondashuv, xar bir fuqaroning kamol topishiga ko'maklashuv orqali ifodalanadi. Shu sababli ijtimoiy davlatga xos bo'lgan ochiq oshkorlik va universallik kabi tamoyillar bilan bir qatorda tolerantlik xam muxim ahamiyat kasb etadi". Ushbu tajriba bugungi kunda Markaziy

Osiyoning boshqa davlatlarida ham shakli, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organi sifatida talqin etilib, mazmunan mahalla institutining funktsiyalarini bajarayotganligi, ushbu tajribaning ommalashayotganligini hamda ushbu omil mintaqamiz xalqlari uchun tarixiy-an'anaviy holat ekanligini tasdiqlaydi.

Ko'p millatli Markaziy Osiyo mintaqasida millatlararo munosabatlarni takomillashuvida mintaqqa xalqlariga xos bo'lgan bag'rikenglik ham muayyan qiymatga egaki, bag'rikenglik mintaqada istiqomat qiluvchi millat va elatlarni birlashtiruvchilik xususiyati bilan e'tiborlidir. "Tolerantlik (bag'rikenglik) ... bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashga intilishidir". Modomiki, shunday ekan mintaqqa xalqlari tafakkuriga bag'rikenglik xislatlarini singdira borish o'zaro hamkorlik, do'stlik va yaxshi qo'shnichilikning garovi sifatida muhim. Markaziy Osiyo hududi o'nlab asrlardan beri Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganligi bois, turfa din, turli millat va elatlar vakillari mintaqamiz hududida qaror topib, o'rnashganlar. Ushbu holat ham mintaqaning tub xalqlariga xos bo'lgan bag'rikenglik tamoyilining ijtimoiy-tarixiy asoslarining teranligini bildirib, Markaziy Osiyoning polietnik mohiyati bevosita ushbu omil bilan bog'liq.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madaeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. –T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: - Ma'naviyat, 2008.
3. Ota-Mirzaev O.B., G'anieva M.X., Latipova N. va b.sh. Oila ma'naviyati. – Toshkent, 2007.
4. Chelovek: obraz i sущность. Tolerantnostь i arxitektonika emotsiy.- M.:Ross.ak.nauk., 1998